

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV O'TKIR ORTIQBOYEVICH

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTNI
MAFKURALASHTIRISH JARAYONLARINING TARIXIY TAHLILI
(1950 – 1991-yy.)

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Jo‘rayev O‘tkir Ortiqboyevich

О‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili (1950 – 1991-yy.) 3

Жураев Уткир Ортикбоевич

Исторический анализ процессов идеологизации социально-культурной жизни в Узбекистане (1950 – 1991 гг.)..... 29

Juraev Utkir Ortiqboyevich

Historical analysis of the processes of ideologization socio-cultural life in Uzbekistan (1950 – 1991 yy.)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV O'TKIR ORTIQBOYEVICH

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTNI
MAFKURALASHTIRISH JARAYONLARINING TARIXIY TAHLILI
(1950 – 1991-yy.)

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Tar307 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-tarix.tdpu.uz) va "ZiyoNet" (www.ziynet.uz) axborot ta'lim tarmog'iga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavrulov Abduxalil Abdulxayevich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Yunusova Xurshida Erkinovna

tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Abdulla Nuriddinovich

tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy Kengashning 2024-yil _____ soat_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " " _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil " " _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

A.K. Kirgizbayev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, tarix
fanlari doktori, professor

S.B. Tilabayev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
tarix fanlari nomzodi

N.X. Oblomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, tarix
fanlari doktori, professor

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr jahon xalqlari ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida mafkuraning roli keskin ortishi bilan ajralib turadi. XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan siyosiy partiyalar o'z mafkuralariga ega bo'lib, ularning har biri siyosiy hokimiyatga erishish yo'lida ulardan foydalandi. Bu davrda anarxizm, kommunizm, marksizm, revizionizm, leninizm, liberalizm, natsional-sotsializm singari bir qator totalitar mafkuralar paydo bo'lib, ijtimoiy ongning mafkuralashuvida katta rol o'ynadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng vujudga kelgan milliy ozodlik harakatlarida, ikki qutbli dunyo tizimida mafkuraning roli yanada ortdi. XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib G'arb dunyosining demokratik qadriyatlari ko'pchilik xalqlar uchun taraqqiyotning asosiy omiliga aylangan bo'lsa-da, milliy mafkuralarning roli o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

XX asr boshlarida Rossiyada hokimiyatga kelgan bolsheviklarning kommunistik mafkurasi SSSR va uning tarkibiga kirgan O'zbekiston SSRda ham yetmish yildan ko'proq vaqt davomida siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotining asosini tashkil qildi. Bu mafkurani xalq ongiga singdirish sovet va partiya organlarining, ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasiga aylandi. Ta'lim, madaniyat, san'at va kundalik turmushni mafkuralashtirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirilgan islohotlar, avvalo. sovet totalitar tuzumidan qolgan mafkuraviy postulatlarni o'zgartirishga, milliy mafkurani shakllantirishga qaratildi. Natijada jamiyatning siyosiy faollashuvi yuz berdi va kommunistlar amalga oshirgan ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirishning oqibatlarini jiddiy o'rganish dolzarb vazifaga aylandi. Mustaqillik yillarida kommunistik mafkuraning siyosiy va iqtisodiy hayotga ta'siriga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi, ammo mafkuraning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni yetarli darajada o'rganilmaganligi va bunga ilmiy va amaliy ehtiyojning mavjudligi tadqiqotning zaruratini belgilab beradi.

XX asr jahon miqyosida mafkuralar o'rtasidagi kurash davri bo'ldi. Shu sababli O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish va uning oqibatlari muammosi butun o'tgan asr davomida, ayniqsa, uning ikkinchi yarmidan boshlab bir qator chet el ilmiy markazlari va olimlari tomonidan o'rganila boshlangan. Bu jarayonda XX asrda shakllangan boshqa radikal mafkuralar qatori kommunistik mafkuraning ham totalitar mohiyatini ochib berishga, uning demokratik rivojlanish yo'lida to'siq bo'lishiga, bu mafkura hukmron bo'lgan jamiyatlarda fuqarolarning fundamental huquqlari ta'minlanmasligiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 3-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ilm-fan va ma'naviy-ma'rifiy sohalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ilmiy ishning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot muammolari ilmiy-tadqiqotning davriy chegarasi doirasida 1950-yillardan boshlab o‘rganilib kelingan. Ayniqsa, 1970-yillardan bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratiladi. Ammo sovet davridagi tadqiqotlar ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirishni ijobiy hodisa sifatida o‘rganganligi va shundan kelib chiqib, asosan uni mukammallashtirish yo‘llari, kommunistik mafkuraning targ‘ibot va tashviqot usullarini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqqanligi va shu kabilar bilan ajralib turadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlarni uchta guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi guruh sovet davrida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlarni tadqiq qilgan olimlardan E.Qodirov, X.Po‘latov, N.G‘oyipov, V.Ustinov, K.Oqilov, K.Bo‘ronov, M.Kapustin, A.Valiyev, S.Shermuhammedov, X.Rasulov, S.Otamuradov¹ kabilarning asarlarini kiritish mumkin. Ularning asarlari kommunistik mafkura asosida yaratilgan bo‘lsa-da, ularda gumanizm va madaniyat, madaniyatda milliylik va baynalmilallik dialektikasi va o‘zaro bog‘liqligining nazariy jihatlari o‘z aksini topgan.

K.Oqilov, A.Valiyevning asarlari O‘zbekistonda sovet davri madaniyatining rivojlanishi, bu jarayonda intelligensiyaning roliga bag‘ishlanib, mualliflar asarlarini zamonaviy o‘zbek madaniyatining rivojlanishida kommunistik partiya va sovet hokimiyatining rolini ochib berishga bag‘ishlaydi.

K.Bo‘ronov, S.Shermuhammedovning asarlari sotsialistik madaniyat rivojlanishining dialektikasi, rivojlanish nazariyasi va amaliyoti hamda madaniyatning milliy shakli masalalariga bag‘ishlangan. Mualliflar, albatta, bu muammolarni markscha-lenincha nazariya asosida ochib bergan bo‘lsa-da, XX asr o‘zbek madaniyati rivojlanishidagi yutuqlar va muammolarni obyektiv tahlil qilgan.

1950 – 1991-yillarda davriy matbuot sahifalarida o‘zbek milliy madaniyati, ta’lim va mafkura masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar e‘lon qilindi².

¹ Қодиров Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. – Т., 1957; Пулатов П.Х. Коммунизм, государство, культура, личность. – Т., 1971; Гаибов Н. Проблемы развития советских национальных искусств.–Т., 1973; Унинг о‘зи. Социализм и национальные искусства. – Т., 1974; Устинов В.В. Идеологические функции искусства. – Л., 1972; Акилов К.А. Ленин и культурная революция в Узбекистане. – Т., 1972; Его же. Рассвет культуры Узбекистана. – Т., 1985; Буранов К.Б. Дialeктика развития социалистической культуры. – Т., 1974; Капустин М.П. Дialeктика национального и общечеловеческого в художественной культуре Советского Востока. –Т., 1978; Валиев А.К. Октябрь, культура, интеллигенция. – Т., 1977; Шермухаммедов С.Ш. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры. – Т., 1980; Шермухаммедов С. Ўзбек халқи социалистик маданиятининг миллий шакли ҳақида. – Тошкент, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашри, 1961; Расулов Х.Г., Атамуратов С.А. Интернационализация национальных культур. – Т., 1986. ва бошқ.

² Бердиев Н. Капустин М.П. Дialeктика национального и общечеловеческого в художественной культуре советского Востока // Общественные науки в Узбекистане. – 1979 – № 7; Бабаханов Б.Ю. Дialeктика интернационального и национального в культуре советского народа // Общественные науки в Узбекистане.

Ularning asosiy xususiyati shu davrdagi o‘zbek madaniyati rivojlanishi muammolarini kommunistik jamiyat bilan bog‘lab ta‘riflashda edi.

Mavzuni yoritishga o‘zgacha qarash “qayta qurish” yillarida boshlandi. Bu davrda bir qancha tarixiy va falsafiy asarlar³ paydo bo‘lib, ularda zamonaviy o‘zbek milliy madaniyatining holati va rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Bu davr adabiyoti, ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridagi maqolalarning farqli jihati shundaki, endi madaniyatdagi muammolar nisbatan ochiq aytilishi bilan birga, ular O‘zbekiston tabiatini saqlash, paxta yakkahokimligi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish kabi milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan bog‘liq muammolarni ko‘tarib chiqdi. Ayniqsa, “qayta qurish”ning so‘nggi yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, madaniy va siyosiy mustaqilligi masalalari ham maqolalarda o‘z o‘rnini topgan.

Ikkinchi guruhga chet el olimlari tomonidan yaratilgan asarlar kiradi. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri kommunistik mafkuraning totalitar xarakterini ochib berishga qaratilganligidir. Bir qism⁴ asarlarda bevosita O‘zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar yoritilmagan bo‘lsa-da, sovet davlati va uning asosi bo‘lgan kommunistik mafkuraning paydo bo‘lishi va hukmron mafkuraga aylanishi va uning jamiyat uchun xavfli tomonlarini ochib berganligi bilan ajralib turadi. Boshqa bir qator olimlar asarlari⁵ bevosita O‘zbekistonda sovet hokimiyati o‘rnatilishi va hukmron mafkuraning turli jihatlariga, xususan, totalitar mafkura hukmronligi sharoitida o‘zbek millatining shakllanishi, milliy mafkuraga islom dinining ta‘siri, dunyoqarashning shakllanishida sovet mafkura tashviqotining roli kabi jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu asarlarning ustun tomoni shundaki, ularning mualliflari kommunistik mafkura ta‘siridan xoli bo‘lib, muammolarni obyektiv yoritishni maqsad qilishgan. Shunday asarlar orasida ta‘lim tizimiga mafkuraning singdirilishini O‘zbekiston maktablari misolida yoritib bergan AQShning Kornell universiteti professori Uri Bronfenbrennerning asarini⁶ alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Professor U. Bronfenbrenner O‘zbekistonda ham bo‘lib, maktab ta‘limi bilan yaqindan tanishgan, AQSh va SSSR maktablaridagi holatni qiyoslab, ikkalasidagi ijobiy va

1981, – №5; Рўзметов А. Радио интернационал тарбиянинг таъсирчан курули // Ўзбекистон Коммунисти. 1983 йил 7 июнь, ва бошқалар.

³ Расулов Х.Г., Атамурадов С.А. Интернационализация национальных культур. – Т., 1986; Атамурадов А. Национальное самосознание и интернациональное воспитание. – Т., 1991; Культура, нравственность, человек. – Т., 1991.; Наджимов Г.Н. Народные традиции и культура. – Т., 1992; Хакимов Н. Политическая культура личности // Агитатор Узбекистана – 1990, – № 4.

⁴ Карр Э. История советской России. Кн. 1: Том 1 и 2. Большевицкая революция. 1917 – 1923. – М.: Прогресс, 1990; Бранденбергер Д.Л. Национал-большевизм. Сталинская массовая культура и формирование русского национального самосознания (1931-1956 гг.) – СПб.: Академический проект, Издательство ДНК, 2009; Хайек, Фридрих Август фон. Дорога к рабству. – М.: Новое издательство, 2005; Джилис М. Новый класс. – Нью-Йорк, Издательство Фредерик А. Прегер. 1961; Абрам Терц. Что такое социалистический реализм. – Париж, SYNTAXIS, 1988; Верт Н. История советского государства. 1900 – 1991: Пер. с фр. — М.: Прогресс: Прогресс-Академия, 1992.

⁵ Адиб Холид. Ўзбекистон таваллуди – Akademnashr, 2022; Gregory Gleason. The Central Asian States: Discovering Independence. Boulder: Westview Press, 1997; Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case Study of Uzbekistan // Perestroika at the Crossroads. Edited by Alfred J. Rieber, Alvin Z. Rubinstein. M.E.Sharpe, Inc: Armonk, NY: USA. 1991; William Fierman. Policy Toward Islam in Uzbekistan in the Gorbachev // Nationalities Papers, Volume 22, Issue 1: Spring 1994, pp. 225 – 246; Шоберлайн-Энгел Д. Перспективы становления национального самосознания узбеков // Восток. – 1997. – № 3.

⁶ Бронфенбреннер У. Два мира детства: Дети в США и СССР. – М.: Прогресс, 1976.

salbiy tomonlarni ochib bergan, sovet maktablaridagi kollektivizm ruhi va mafkuraning roliga alohida e'tibor qaratgan.

Uchinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar kiradi⁷. Bu asarlar kommunistik mafkura ta'siridan xoli bo'lganligi uchun ularda sovet davrida madaniyatni mafkuralashtirish muammolarini nisbatan ochiq tahlil qilishga harakat qilingan. Ammo 90-yillardagi asarlarning bir qismida hali eskicha yondashuv asoratlari sezilib turadi. Ularda sovet davri o'zbek madaniyatining muammolari bilan birga ko'proq yutuqlari haqida ham aytiladi. Biroq mustaqillik yillarida amalga oshirilgan dissertatsiya ishlarida muammoga yangi yondashuvlar asosida baho berishga harakat qilingan⁸.

Umuman mavzuning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, postsotsialistik davrda respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va maxsus adabiyotlar mualliflari tomonidan O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili (1950 – 1991-yy.) mavzusi maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning disseratsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1950 – 1991-yillari O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonini tarixiy tahlil qilish va uning respublikadagi ijtimoiy hayotga hamda milliy madaniyatga yetkazgan zararli jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Sovet tuzumi davrida kommunistik mafkuraning jamiyatdagi rolini tahlil qilish;
- O'zbekistonda san'at sohasini mafkuralashtirish va uning milliy san'at rivojiga yetkazgan zararini ochib berish;
- Respublika ta'lim tizimini kommunistik mafkura maqsalariga bo'ysundirish jarayonini tahlil qilish va uning yoshlar ongiga yetkazgan zararli jihatlarini asoslash;
- O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni mafkuralashtirishda ommaviy-axborot vositalarining rolini ochib berish;

⁷ Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни нации. – Т., 1992; Каримова Н. Киноиндустрия Узбекистана и её вклад в социально-экономическое развитие страны. – Т.: Vaktria press, 2019; Каримов Н. 40 – 50-йиллардаги мафкуравий кампаниялар ва катагон // Тарихнинг номаълум саҳифалари. – Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2013; Турдиев Ш. Байналмилалчилик аъналарари / Совет Ўзбекистони, 1991 йил 2 февраль

⁸ Маврулов А.А. Культура Узбекистана на современном этапе: общее состояние. Проблемы. Тенденции развития (Середина 70-х – начало 1990 гг.). Диссертация доктора исторических наук. – Т., 1993; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития (50 –60-е годы): Диссертация доктора исторических наук. – Т., 1998; Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и ее воздействие на культурную жизнь Узбекистана (1925 – 1950 гг.): Дис. ...докт. истор. наук. – Т., 2012; Юсупова Х.Э. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2009; Ҳайдаров Ғ.М. Ўзбекистонда миллий аънаваний санъатнинг совет ва мустақиллик даврида ривожланиши тарихи (Фарғона водийси хунармандчилиги мисолида). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 2011.

- Ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonining milliy-tarixiy an'analariga zidligi va uning jamiyatda erkin tafakkurning rivojlanishiga zararli ta'sirini tahlil qilish.

- Tadqiqot natijalari asosida yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini 1950 – 1991-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti qilib 1950 – 1991-yillarda O'zbekistonda milliy san'at, adabiyot va ta'lim sohalarini mafkuralashtirish, yoshlar ongiga "rivojlangan sotsializm" g'oyasini singdirish va uning oqibatlari, mafkurani targ'ib qilish jarayonida radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarining roli, ziyolilarning ommaviy axborot vositalarida milliy o'zlikni anglash uchun olib borgan kurashlari va jamiyatga sovet mafkurasini singdirish bilan bog'liq boshqa masalalari olindi.

Tadqiqot usullari. 1950 – 1991-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili mavzusini tadqiq etish jarayonida fanlararo yondashuv, tarixiy qiyoslash, tarixiylik va xolislik tamoyillari hamda miqdoriy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda san'at sohasini kommunistik mafkuralashtirishning nazariy-konseptual jihatlari cheklanganligi, jumladan, sovet davrida unitilayozgan milliy san'atning chuqur tarixiy ildizga ega ekanligi va san'atda milliylik hamda baynalminallikning uyg'unligi bilan izohlanishi asoslangan;

sovet ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarining cheklanganligi ta'limni mafkuralashtirish jarayoni bilan bog'liqligi ochib berilgan;

yoshlar ongiga "rivojlangan sotsializm" g'oyasini singdirish jarayonida nazariya va amaliyotning bir-biri bilan mos emasligi bu jarayonning muvaffaqiyatsizligini oldindan belgilab berganligi va oqibatda yosh avlod qiyofasida ishonchsizlik va apatiya xususiyatlarining shakllanishiga olib kelganligi asoslangan;

1980-yillarning ikkinchi yarmidan o'zbek ziyolilarining ommaviy axborot vositalarida o'zlikni anglash uchun olib borgan kurashi jamiyatda milliy mustaqillik g'oyalarining shakllanishida katta rol o'ynaganligi yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1950 – 1991-yillari O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlari tarixiy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilingan va yaxlit tarzda ko'rsatib berilgan;

O'zbekistonda sovet ma'muriy-boshqaruv tizimining kuchayishi sharoitida milliy san'atga mafkuraviy aralashuvning yanada ortishi san'atning jamiyat muammolarini aks ettirishdan uzoqlashuviga olib kelganligi ochib berilgan;

Sovet ta'lim tizimida mafkuraviy yuklamaning yuqoriligi nazariy jihatdan ta'limning sifati va amaliy ahamiyatining darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniq dalillar bilan asoslab berilgan;

O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotning mafkuralashuvida ommaviy axborot vositalarining roli hamda milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglash jarayonlari tahlil qilingan;

O‘rganilgan davrda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish muammolari ochib berilgan va ijtimoiy-madaniy jarayonlar va mafkura mutanosibligiga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida tarix fanida umumiy tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, arxiv materiallari, tarixiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari, jurnallar, ilmiy to‘plamlarda e‘lon qilingan maqolalardan foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1950 – 1991-yillari O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlari va uning respublika rivojlanishiga yetkazgan zararli oqibatlari to‘g‘risidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish hamda ularni ilmiy-tadqiqotlarga joriy qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati XX asrning 50 – 90-yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, respublikada ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish tarixini tadqiq etishga bag‘ishlangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, tarixiy bilimlarni rivojlantirishga, yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yanada mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili (1950-1991-yy.) bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy taklif va tadqiqotlar natijasi asosida:

O‘zbekistonda san‘at sohasini kommunistik mafkuralashtirishning nazariy-konseptual jihatlari cheklanganligi, jumladan, sovet davrida unitilayozgan milliy san‘atning chuqur tarixiy ildizga ega ekanligi va san‘atda milliylik hamda baynalminallikning uyg‘unligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-apreldagi 240-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-maydagi 12-15-39-son ma‘lumotnomasi).

Natijada mazkur ma‘lumotlar Surxondaryo viloyatida madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

Sovet ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonlarining cheklanganligi ta‘limni mafkuralashtirish jarayoni bilan bog‘liqligi haqidagi xulosasidan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga muvofiq nashr etilgan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan

va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 24-maydagi 03/11-24/05-son ma'lumotnomasi).

Natijada ushbu ma'lumotlar asosida O'zbekistonning ta'lim tizimi tarixini yangi materiallar bilan boyitishga xizmat qildi.

Yoshlar ongiga "rivojlangan sotsializm" g'oyasini singdirish jarayonida nazariya va amaliyotning bir-biri bilan mos emasligi bu jarayonning muvaffaqiyatsizligini oldindan belgilab berganligi va oqibatda yosh avlod qiyofasida ishonchsizlik va apatiya xususiyatlarining shakllanishiga olib kelganligi Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 22-fevraldagi 85-son ma'lumotnomasi).

Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar 1950 – 1991-yillar O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonini tarixiy tahlil qilish va uning respublika ijtimoiy hayotiga hamda milliy madaniyatiga yetkazgan zararli jihatlarni ochib berishni o'rganishda xizmat qildi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan o'zbek ziyolilarining ommaviy axborot vositalarida o'zlikni anglash uchun olib borgan kurashi jamiyatda milliy mustaqillik g'oyalarining shakllanishida katta rol o'ynaganligiga oid materiallar umumta'lim maktablarining 10-sinflari uchun tayyorlangan "O'zbekiston tarixi" darsligining "1980-1990-yillarda O'zbekiston", "O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy faollik va mustaqillik sari intilishning kuchayishi" nomli paragraflarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 22-maydagi 04-02/3-429-son ma'lumotnomasi).

Natijada 10-sinflar uchun tayyorlangan "O'zbekiston tarixi" darsligining yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qildi hamda ushbu ma'lumotlar yosh avlod tafakkurini kengayishi va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi yangi ilmiy ma'lumotlarni to'ldirilishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosa va takliflar 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 1 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyalarida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbaa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 123 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda ma‘muriy boshqaruv tizimining kuchayishi sharoitida milliy san‘atga mafkuraviy aralashuvning yanada ortishi masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida san‘at sohasini mafkuralashtirishning nazariy-konseptual jihatlari va ularning cheklanganligi, urushdan keyingi, ayniqsa, 1950-yillardan boshlab SSSRda, jumladan, O‘zbekiston SSRda sovet ma‘muriy boshqaruv tizimi yanada kuchayganligi va shunday sharoitda madaniyatning barcha sohalari, jumladan, san‘atga mafkuraviy aralashuvning kuchayganligi ko‘plab ilmiy ishlar, arxiv materiallari asosida tahlil qilingan.

Bolsheviklar san‘atning vazifasini o‘zlarining kommunistik ideallaridan, sinfiy kurash mohiyatidan kelib chiqib belgilaydilar. V.I. Leninning partiya san‘at sohasiga aralashmasdan tura olmaydi, degan gaplari ideallashtirildi. San‘atning jamiyatdagi roli haqidagi asosiy qoidalar V.I. Lenin tomonidan uning “Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti” nomli dasturiy maqolasida shakllantirildi⁹. V.I. Lenin “adabiyot” deganda, avvalo, birinchi rus inqilobidan keyin yashirin holatdan chiqib, “burjuacha tadbirkorlar va savdogarlar nashriga” qarshi “9/10 foizga partiyaviy” bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgan partiyaviy publitsistikani nazarda tutganiga qaramasdan, keyingi davrlarning mafkuraviy doktrinasida u “nafaqat publitsistika va siyosiy adabiyotni, balki keng ma‘noda adabiyotni, badiiy adabiyotni” ham nazarda tutganligi to‘g‘risida fikr ustuvor bo‘lib qoldi¹⁰.

V.I. Lenin fransuz inqilobchisi, anarxist, “Internatsional” gimni so‘zlarining muallifi Ejen Pote (1816–1887) ijodiga bag‘ishlangan maqolasida san‘atning estetik mohiyatidan uning g‘oyaviy mazmunini yuqori qo‘yadi¹¹. Bunday yondashuv butun sovet hokimiyati yillarida san‘at ustidan, ijodkorlar faoliyati ustidan kommunistik partiya nazoratining o‘rnatilishiga, ijoddagi erkinlikning, “partiya belgilab bergan yo‘ldan chetga chiqish hollari”ning qat‘iy cheklanishiga, ko‘plab ijod ahlining, san‘atkorlarning qatag‘on qilinishiga olib keldi.

Aynan shunday yondashuv va uning erkin ijodiy faoliyatga zidligi butun sovet hokimiyati yillarida SSSR, jumladan, O‘zbekistonda san‘at rivojlanishining ziddiyatli yo‘nalishini belgilab berdi. Bu ziddiyat shundan iboratki, bir tomondan, milliy san‘at jamiyat rivojining yangi bosiqichiga mos ravishda yangi yo‘nalish va mazmun bilan boyib bordi, san‘atning badiiy kino, opera, musiqiy komediya kabi yangi janrlari paydo bo‘ldi, ikkinchi tomondan, kommunistik mafkura va u e‘lon qilgan postulatlar ta‘siri ostida san‘at borgan sari o‘zining milliylik xarakterini yo‘qotib bordi.

⁹ В.И. Ленин ППС.Т. 12. – С. 99 – 105.

¹⁰ Хайченко Г. Партийность и правдивость искусства // Реализм и художественные искания XX века. – М.: Наука, 1969. – С. 45.

¹¹ В.И. Ленин. ПСС. Т. 22, с. 273 – 274.

Kommunistik mafkura faqat shaklan milliy, mazmunan esa baynalmilal san'atni yaratishga intildi.

Bu intilish shunga olib keldiki, erkinlik – shaxsning ma'naviy hayot erkinligi, uning o'z fikrini erkin izhor qilish huquqi – SSSRda shakllangan sotsializm haqidagi tasavvurlar bilan mutlaqo kelisha olmadi¹². Shu sababli, SSSRda “badiiy siyosatning qandaydir uchta birlik – partiyaviylik, xalqchilik, sotsialistik realizmga asoslangan ramzi yaratildi va u estetik qo'riqchilik xizmatining ustavidek ta'sirga ega bo'ldi”¹³.

Bolsheviklar hukmron partiya sifatida muxolifatchi nashr organlarini yopib, dastlab so'z erkinligini chekladi, keyin esa butunlay bekor qildi. Jamiyatda fan va madaniyat arboblarning faoliyati va o'y-fikrlari ustidan total nazorat tizimi o'rnatildi. Partiya apparatida intelligensiyaga ta'sir o'tkazish uchun maxsus bo'linmalar tashkil qilinib, ular noshirlar, badiiy va ilmiy intelligensiya ustidan nazoratni kuchaytirdi.

Jamiyatda ma'lum ta'sirga ega bo'lgan har qanday yozuvchi, artist, musiqachi, rassom, kinematograflarning har bir qadami haqida axborot berib boruvchi xabarchilar ijodiy intelligensiyaning o'z orasidan shakllantirildi. Bu darakchilarning ko'pchiligi ustidan o'zlari xabar bergan kishilarning kasbdoshlari bo'lib, ular ham romanlar yozgan, spektakllar sahnalashtirgan va filmlar sur'atga olgan, tasviriy asarlar yaratgan va ayni paytda “yuqoriga” tezkor xabar yetkazib turishgan. Bunday xabarchilarning “faoliyati” tufayli 1920-yillarning oxiridan boshlab o'zbek intelligensiyasining bir qism ilg'or vakillari qatag'on qilindi.

Ommaviy qatag'onlar, o'zi va yaqinlarining taqdiri uchun javobgarlik hissi bilan mustahkamlangan bu illyuziya ijod ahlini partiya belgilab bergan yo'ldan adashmay xalqni ruhlantiruvchi asarlar yaratishga undadi. 1936-yili SSSRda sotsializm to'liq va uzil-kesil g'alaba qozonganligi haqida e'lon qilinishi, uning ortidan 1937 – 1938-yillari “Katta terror” deb nom olgan qatag'on oqibatida bir qism ziyolilarning qatag'on qilinishi stalinizmga nisbatan yashirin muxolifatda bo'lgan ziyolilar, jumladan, o'zbek ziyolilarining bir qismida ham ilojsizlik kayfiyatini shakllantirdi.

Ana shunday sharoitda tarbiyalangan san'at ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan o'zining butun qudratini, nafratini urushga, fashizmga qarshi qaratdi. Urush sharoiti va butun xalqning gitlerchi bosqinchilarga qarshi kurashi san'at sohasiga ham yangi talablarni qo'ydi. O'zbekistonning san'at muassasalari qisqa muddatda o'z faoliyatini urush sharoitiga moslab qayta tashkil qildi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi San'at ishlari bo'yicha boshqarma va respublika Yozuvchilar uyushmasiga sovet kishilarining frontdagi jasorati va xalqimizning front ortidagi mehnat qahramonliklarini madh etuvchi asarlar yaratish taklif qilindi.

Respublika yozuvchilari, kompozitorlari va rejissyorlari bir necha kun ichida mudofaa va vatanparvarlik mavzulariga bag'ishlangan 30 ta yangi bir va ikki pardali pyesalar, 47 ta qo'shiqlar yaratdi. Shoir va yozuvchilar Chustiy, Sobir Abdullo, Komil Yashin, Amin Umariy, Tuyg'un, M.Yankovskiy, Yu.Arbat, kompozitorlar

¹² Моисеев Н.Н. Пути созидания. – М.: Республика. 1992. – С. 34.

¹³ Полевой В. Художник и власть // Коммунист. – 1990. – № 2. – С. 66–75.

T.Sodiqov, A.Kozlovskiy, M.Ashrafiy, M.Burxonov, Yu.Rajabiy, G.Mushel va boshqalar bu ishda faol ishtirok etdi¹⁴.

1945-yili ikkinchi jahon urushi yakunlanib, tinch hayotga qaytishi bilan SSSRda ma'naviy hayotning barcha jabhalari ustidan nazorat yanada kuchaytirildi. 1946 – 1948-yillari VKP(b) MK siyosiy byurosining bir qator qarorlari¹⁵ qabul qilinib, ijodiy intelligensiya, adabiyotshunoslik, dramaturgiya, teatr va musiqa ustidan mafkuraviy nazorat kuchaydi. Birin-ketin shov-shuvli tashviqot kampaniyalari avj olib, faqat G'arb mafkurasining ta'siri emas, har qanday o'ziga xoslik, tafakkur va ijoddagi, adabiyot va san'atdagi mustaqillik qattiq tanqid ostiga olindi.

Urushdan keyin, 1946-yil 14-avgustda VKP(b) MKning badiiy adabiyot masalalariga bag'ishlangan "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risidagi dastlabki qarori adabiyot olamini larzaga keltirdi. Qarorda "Adabiyot va san'at kommunizm uchun umumxalq kurashining tarkibiy qismi hisoblanadi ... Adabiyot va san'atning buyuk ijtimoiy vazifasi – xalqni kommunizm qurishda yangi g'alabalar sari kurashga chorlashdan iborat ...

Bizning jurnallarimiz, ular ilmiy yoki badiiy bo'lishidan qat'i nazar, siyosatdan xoli bo'lishi mumkin emas ... Jahonda eng ilg'or adabiyot bo'lgan sovet adabiyotining kuchi shundaki, bu adabiyotning xalq manfaatlari, davlat manfaatlaridan boshqa manfaati yo'q va bo'lishi ham mumkin emas"¹⁶, deyiladi.

"Zvezda" va "Leningrad" jurnallarida "yo'l qo'yilgan" mafkuraviy xato va kamchiliklar faqat shu nashrlargagina xos emasdi. 1946-yil 26-avgustda VKP(b) MKning "Dramatik teatrlarning repertuari va uni yaxshilash choralari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Shu qarordan keyin Shayhzodaning "Jaloliddin Manguberdi", Sobir Abdullaning "Alpomish", Xurshidning "Farhod va Shirin", Oybekning "Mahmud Torobiy" singari va boshqa sahna asarlari O'zbekiston teatrlari repertuaridan olib tashlandi. O'z qarorlarining jamoatchilikka ko'rsatgan katta ta'sir kuchini ko'rgan VKP(b) MK o'sha yilning 4-sentabrida "Katta hayot" filmi haqidagi qarori bilan shu filmning astar-paxtasini ag'darib tashladi¹⁷.

O'zbekistonda respublika siyosiy rahbariyati uchun "millatchilik sarqitlari, milliy cheklanganlik elementlari" o'zbek adabiyotining ayrim asarlarida, san'atda, maktab darsliklarida, gazeta sahifalarida o'z aksini topganligi "chidab bo'lmaydigan

¹⁴ З.Сафарова. Деятельность интеллигенции Узбекистана в годы Второй мировой войны //Worldscience, №2(6), Vol5, February 2016.

¹⁵ Қаранг:Постановление Оргбюро ЦК ВКП(б) о журналах «Звезда» и «Ленинград» от 14 августа 1946 г.; Постановление Оргбюро ЦК ВКП(б) «О репертуаре драматических театров и мерах по его улучшению» от 26 августа 1946 г.; Постановление Секретариата ЦК ВКП(б) «О редакционной коллегии журнала «Звезд»» от 30 августа 1946 г.; Постановление Оргбюро ЦК ВКП(б) «О кинофильме «Большая жизнь»» от 4 сентября 1946 г.; Постановление Оргбюро ЦК ВКП(б) «О смене руководства Союза советских писателей СССР» от 13 сентября 1946 г.; Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «О крупных недостатках в организации производства кинофильмов и массовых фактах разбазаривания и хищения государственных средств в киностудиях» от 16 декабря 1946 г.; Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «О 500-ление со дня рождения узбекского поэта Алишера Навои» от 18 января 1947 г.; Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «Об опере «Великая дружба» В.Мурадели» от 10 февраля 1948 г.; Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «О руководстве союза советских композиторов СССР» от 12 мая 1948 г. ва бошқалар.

¹⁶ Постановление ЦК ВКП (б) о журналах "Звезда" и Ленинград" от 14 августа 1946 г.

¹⁷ Каримов Н. 40 – 50-йиллардаги мафкуравий кампаниялар ва катагон // Тарихнинг номаълум саҳифалари. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2013. – Б.19

holat” deb baholangan. Totalitar Markazning ko‘rsatmasi bo‘yicha, respublika siyosiy rahbariyati ilm-fan, adabiyot va san‘atning ba‘zi vakillarini, “feodal o‘tmishni ideallashtirishda va undagi ayrim arboblarning o‘zbek xalqi tarixidagi roliga “nomarksistik” yondashish orqali baho berganliklari uchun aybladi”.¹⁸

Ba‘zi operalar va ularning mualliflari – “Ulug‘bek” (muallif Kozlovskiy), “Mahmud Tarobiy” (muallif Chishko), “Baxt vodiysi” (mualliflar Ashrafiy va Vasilenko) va h.k. hamda kompozitorlar qattiq tanqidga uchradi. Bu mualliflar “o‘z ijodida bir tomonlama yondashib, xalqdan uzoqlashib ketganliklari, eski zamon shoirlari asarining matniga musiqa bastalaganliklari uchun ayblandilar”.¹⁹ Shular bilan bir qatorda O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasining Tashkiliy Qo‘mita arboblariga ham ayblar qo‘yildi.²⁰

O‘zbekiston KP (b) MK X Plenum (1952-yil fevral) qarorlarida O‘zbekistonning bir qator olimlari va madaniyat arboblarining ijodlari qattiq tanqid qilinib, folklor asarlariga o‘ta salbiy baho berildi. “Alpomish” xalq dostoni esa mutlaqo jaholatparastlikda ayblandi.²¹

1956-yil 25-fevralda KPSS XX syezdining so‘nggi kuni ko‘pchilik uchun kutilmagan holda Xrushchev “Shaxsga sig‘inish va uning oqibatlari to‘g‘risida” nutq so‘zladi. Uning nutqi o‘zining barcha kamchiliklariga qaramasdan, butun mamlakat, respublikalar ma‘naviy hayotida katta o‘zgarishlarni boshlab berdi.

1956-yil 10-14-oktabr kunlari Toshkentda O‘zbekiston ziyolilarining I syezdi bo‘lib o‘tdi. Syezdning tashabbuskori va asosiy dokladchisi bo‘lgan N.A. Muxitdinov o‘zining 11-oktabrda so‘zlagan nutqida SSSRda birinchi bo‘lib qatag‘on qilinganlar ismlarini aytib, ommaviy rehabilitatsiya haqida e‘lon qildi, milliy tarixni jiddiy o‘rganish, uni ommalashtirish vazifasini qo‘ydi. Shuningdek, u shaxsga sig‘inish bilan shaxsning tarixdagi roli o‘rtasidagi farq, milliylik bilan millatchilik o‘rtasidagi juda nozik chegara, milliylik bilan baynalmilallikning o‘zaro uyg‘unligi haqida gapirdi. Qamoqdan qaytgan va rehabilitatsiya qilingan o‘zbekistonlik shoirlar va yozuvchilar ishtirokida ilgari aytilmay kelingan masalalar, masalan, O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishining mustamlakachilik xarakteri, ko‘p asrlik milliy tarix va madaniyatga nisbatan pisandsizlik siyosati kabi masalalar ko‘tarildi va muhokama qilindi.

Shundan so‘ng o‘zbek san‘atida boshlangan jonlanish jarayoni 50-yillarning ikkinchi yarmi – 60-yillardan boshlab yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarda yangi demokratik qarashlar shabadasi mustahkamlandi. Bu davrda rang-tasvir, grafika, haykaltaroshlikda plastik masalalar tez-tez ko‘tarila boshladi. Me‘morlikda va amaliy-bezak san‘atiga yangi texnologiyalarning kirib kelishi san‘atning tur va janrlarini yanada kengaytirdi, uning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘ldi, yoki qayta tiklana boshlandi. O‘zbek san‘atida akademik professional san‘at rivojlandi. 1950-yillarning o‘rtalari – 1960-yillardan san‘atda kasbiy mahoratning oshishi,

¹⁸ С. Нурутдинов. Победа сталинской политики социалистической индустриализации в Узбекистане // Правда Востока. 14 декабря 1949 года.

¹⁹ Тургунбаева М. Создать полноценные музыкальные произведения // Правда Востока. 18 февраля 1948 г.

²⁰ Мариненко К. Против консерватизма и ложного новаторства в музыке // Правда Востока. 27 февраля 1948 г.

²¹ Очерки Истории Коммунистической партии Узбекистана. – Т., Узбекистан. 1974. – С. 489.

yaratilgan asarlarda quruq ko‘chirish, balandparvozlik o‘rniga sokin, kundalik hayotni to‘laqonli ko‘rsatish xususiyati kuchayib bordi. Bu badiiy jarayonlarning qizg‘in tus olishida 1954-yil Toshkentdagi Teatr va rassomchilik institutining Rassomlik fakulteti ochilishi ham muhim bo‘ldi²².

1950-yillar avvalida dramaturgiyaga tajribali yozuvchi Abdulla Qahhor bilan birga Bahrom Rahmonov, Odil Yoqubov boshliq yangi avlod kirib keldi. Abdulla Qahhor ilk “Shohi so‘zana” (“Yangi yor”, 1950 – 1952) komediyasida Uyg‘unning “Qaltis hazil” komediyasidan keyin sahnada kulgi janrini jonlantirish bilan birga hazilni chinga burishga, komediyaning asosiy vazifasi kulgi bahona jamiyat va inson tabiatidagi nuqsonlarni ochib tashlashdan iborat ekaniga e‘tiborni qaratib, izchillik bilan ish tutadi. Agar “Shohi so‘zana”da kulgining fosh etuvchi kuchi u qadar sezilarli darajada bo‘lmasa, “Og‘riq tishlar”da (1954) jiddiy tus olib, “Tobutdan tovush”da (1962) avjiga chiqadi. Pyesa “sovet voqeligini buzib ko‘rsatish” aybi bilan qoralandi. Undan o‘n yilcha avval Bahrom Rahmonovning ilk yozgan “Yurak sirlari” komediyasi ham shunday hukmga duchor bo‘lib, Hamza nomidagi teatr tomonidan sahnalashtirilgan spektakli to‘xtatib qo‘yilgan edi. Biroq uzoq davom etgan muhokama, bahslardan so‘ng, jamoatchilik va mutaxassislarning himoyasida sahnada tiklanib, tomoshabinning sevimli va umri boqiy spektakllari safiga o‘tdi. “Tobutdan tovush” komediyasining spektakli bilan ham xuddi shunday voqea yuz beradi²³.

1950-yillar oxiri – 1960-yillar boshlari badiiy filmlar ishlab chiqarishning asta-sekin ko‘payishi, janrlarning kengayishi, zamonaviy mavzularga murojaat qilishning faollashuvi bilan xarakterlanadi. Bu davrda o‘zbek kinosining yangi avlodi vakillari – Sh. Abbasov, A. Hamraev, R. Botirov, E. Ishmuhamedov, O. Agishev, D. Salimov, K. Kamalova, U. Nazarov, D. Fatxullin, X. Fayziev kabi yorqin namoyondalari kirib keldi.

Bu davr filmlarida milliylik va zamonaviylik uyg‘un tarzda aks etadi.

Shu davrda O‘zbekistonda suratga olingan kartinalar Ibn Sino, al-Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Ulug‘bek kabi buyuk tarixiy shaxslarga bag‘ishlandi. Bu filmlarda kommunistik so‘z “milliy” xabarnoma shakliga kirdi. Ali Hamroevning “Oq, oppoq laylaklar” (1966), “Qo‘rquvsiz” (1971), “Inson qushlar ortidan boradi” (1975) yoki “Triptix” (1980) filmlari o‘zining badiiy mukammalligi va milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishi bilan ajralib turadi.

1968-yil Toshkentda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Xalqaro kinofestivali bo‘lib o‘tdi. Festival musobaqa tarzida emasdi, shuning uchun tomoshalar natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarga turli jamoat tashkilotlarining mukofotlari, sovg‘alari, esdalik medallari Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida tantanali ravishda topshirilardi. Dastlabki festivalda Osiyo va Afrika mamlakatlaridan 49 ta vakil ishtirok etgan bo‘lsa, 1980-yillarning o‘rtalariga kelib, ular soni ikki barobar oshdi. Taniqli kinomatograflar, madaniyat xodimlari, jamoat va davlat arboblari festival mehmonlari bo‘lishdi.

²² Абдуллаев Н.У. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б. 198.

²³ Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи (1900 – 2007) – Т.: «ART PRESS» Co.Ltd, 2010. – Б. 198 – 199.

Uch qit'a kinomatograflarining Sharqiy Yevropa kino arboblari, bir qator g'arb mamlakatlari, shuningdek, Avstraliya va Okeaniya kinomatografiya vakillari ishtirokidagi uchrashuvi sayyoramizning yuksak kino san'ati ijodiy kuchlarini birlashtirishga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Toshkent xalqaro kinofestivali va ushbu tadbir doirasidagi uchrashuvlar o'zbek ijodkor ziyolilarida katta taassurot qoldirdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ushbu yillardagi o'zbek kinomatografiyasi mavzularning rang-barangligi, janr va yo'nalishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur yillarda suratga olingan "Oppoq laylaklar", "Mehribonlik" "Sevishganlar", "Ulug'bek yulduzi", "O'tgan kunlar", "Osiyo ustida bo'ron", "Toshkent – non shahri" kabi filmlar o'zbek kinosining oltin fondidan joy oldi. E.Eshmuhamedov va R.Agishevlarning "Dahoning yoshligi" filmi SSSR davlat mukofotiga sazovor bo'ldi, rejissyor A.Hamroevning "Qushlar ortidan borayotgan odam" filmi 1976-yildagi Dehli xalqaro kinofestivalida "Kumush tovus" mukofotini oldi.

O'zbek kinematograflari o'zlarining eng yaxshi asarlarida baynalmilallik bilan milliylikni birlashtirib, hayotning eng dolzarb, eng muhim hodisalarini aks ettiradi. "Alisher Navoiy", "Sen yetim emassan", "Ulug'bek yulduzlari", "Nafosat", "Toshkent non shahri", "Olovli yo'llar" va boshqa ko'plab filmlarning faqat respublikada emas, undan tashqarida ham mashhur bo'lganligi tasodif emasdi.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston tasviriy san'atida realizm ustuvor usulga aylanadi. Bu davrda ijod qilgan R.Ahmedov, N.Qo'ziboyev, M.Saidov, T.Oganesov, V.Kaydalov va boshqa ko'plab ijodkorlar o'z asarlari bilan yangilangan realizmning qaror topishida katta rol o'ynadi. Ularning asarlari O'zbekiston tasviriy san'ati tarixining oltin fondidan joy olganligini ta'kidlagan holda aytilish lozimki, bu rassomlarning ijodiy izlanishlari o'z davrining ma'naviy izlanishlarini aks ettiradi. Milliy o'ziga xoslikni aks ettirish bu rassomlar tushunchasida milliy tiplar portretlari, janrlar ssenasi, milliy peyzajlar bilan cheklanadi. Rasmiy estetika bilan belgilab qo'yilgan milliy o'ziga xoslikni shunday aks ettirish usuli boshqa milliy maktablar ijodida ham o'z aksini topadi.

XX asr 80-yillarida O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining mustaqil va yorqin uslubiga ega bo'ldi. Bu davrda ijod qilgan rassomlar milliy tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu rassomlar tarkibi ko'pmillatli bo'lib, ular ijodida o'lkaning tabiati, milliy urf-odatlar bilan bir qatorda, sotsializmga xos baynalmilallik, xalqlar do'stligini aks ettirish va bunda o'ziga xos uyg'unlikni topish xarakterli jihatlar hisoblanadi.

"Ta'lim tizimini kommunistik mafkura maqsadlariga bo'ysundirish jarayonining tarixiy tahlili" nomi ikkinchi bobda o'rganilayotgan davrda O'zbekistonda ta'lim tizimi mafkura maqsadlariga bo'ysundirilganligi tahlilga olingan. 1946 – 1950-yillarga mo'ljallangan SSSR xalq xo'jaligini rivojlantirishning to'rtinchi besh yillik rejalarida xalq ta'limini rivojlantirishning aniq ko'rsatkichlari belgilab berildi. Rejada xalq ta'limini tiklash va urushdan oldingi darajasiga yetkazish, bolalarni umumiy ta'lim bilan to'liq qamrab olish va buning uchun maktablar tarmog'i hamda o'quvchilar kontingentini sezilarli darajada oshirish ko'zda tutildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti,

respublika hukumati xalq ta'limiga maktablar qurilishi va ularni jihozlash, o'quv-ko'rgazma materiallari hamda o'tin-yoqilg'i bilan ta'minlashda ko'maklashish uchun partiya, komsomol va kasaba uyushmalari xodimlarini safarbar qildi.

Urushdan keyingi yillarda xalq ta'limi ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'lar miqdori ham muntazam ortib bordi. Agar 1945-yili O'zbekiston SSR Maorif ministrligining budjeti 734 950 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa (eski narxlarda), 1950-yili bu ko'rsatkich 1 146 903 ming so'mni tashkil qildi.

1950-yillarga kelib butun SSSRda bo'lgani singari O'zbekiston SSRda ham maktab hayotdan ajralib qolganligi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Aslida maktab ta'limining bolalarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlashga qaratilganligiga bir qator obyektiv sabablar bo'lib, u tarixiy nuqtayi nazardan juda qisqa vaqt ichida respublika xalq xo'jaligi uchun milliy kadrlar tayyorlash imkonini berdi. Ayni paytda o'quvchilarni oliy o'quv yurtiga tayyorlash politexnik ta'lim tamoyillaridan ma'lum darajada voz kechishni ham anglatar edi. Shu sababli, O'zbekistonda yoshlarni faqat oliy ta'limda o'qishni davom ettirishga emas, avvalo, hayotga, ijtimoiy foydali va xalq xo'jaligida foydali faoliyatga tayyorlash masalasi qo'yildi. Yoshlarga oliy o'quv yurti juda muhim, ammo insonni hayotga tayyorlashning yagona yo'li emasligini tushuntirish lozim edi. Endi oliy o'quv yurtiga kirishda amaliy mehnat faoliyati tajribasiga ega bo'lgan yoshlarga imtiyozlar beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston SSRda ham umumittifoq qonuni asosida 1959-yili "Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qilindi.

Bu qonun 1960-yillarning o'rtalarigacha davom etgan maktab islohotini boshlab berdi. Islohotlarning asosiy maqsadi sanoat va qishloq xo'jaligi uchun texnik ma'lumotli kadrlar tayyorlash ekanligi e'lon qilindi. 7 yillik ta'lim o'rniga 8 yillik umumiy majburiy ta'lim joriy qilindi va unga o'tish 1963-yilga kelib amalga oshirildi. To'liq o'rta ta'lim 10 yildan 11 yilga uzaytirildi. Ta'limning bu bosqichi kunduzgi, kechki shakllarda va texnikumlarda amalga oshirilib, unda o'qitishni mehnat bilan qo'shib olib borish asosida tashkil qilish ko'zda tutildi. Kunduzgi maktablarning yuqori sinf o'quvchilari o'qish bilan birga haftada ikki kun korxonalarda ishlashi lozim edi. Maktab bitiruvchilari yetuklik attestati bilan birga mutaxassislik to'g'risida guvohnoma ham olardi.

KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti 1966-yil 23-fevralda "O'rta umumta'lim maktablarida mehnatga tayyorlashni qisman o'zgartirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Unda ko'plab o'rta maktablarda majburiy kasbiy tayyorgarlik uchun yetarli sharoitlar mavjud emasligi, bu maktablarda o'quvchilarga umumiy o'rta, politexnik va mehnat ta'limi berish bilan shug'ullanishi, tegishli moddiy-texnik bazaga ega maktablarda esa ajratilgan o'quv soatlari va sinfdan tashqari to'garaklar shaklida o'quvchilarni kasbiy tayyorlashlari lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Bu qaror va uning asosida qabul qilingan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1966-yil 22-martdagi qarori yosh

avlodni o'qitish va tarbiyalashning yanada mukammal shaklini belgilab berdi²⁴.

1959-yilgi qonunga binoan chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar yuklamasi normadan ortib ketishining oldini olish uchun ota-onalarga farzandlarining ta'lim olish tilini tanlash huquqi berildi. Bu qaror oqibatida ko'plab o'zbek tilida ta'lim olib boruvchi maktablarda ta'lim rus tiliga o'tkazildi, o'zbek tili esa ikkinchi darajali fan sifatida o'qitila boshlandi. Sovet hukumati "proletar baynalmilalligini" amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. O'zbek maktablarining o'quv rejasida rus tili uchun ajratilgan dars soatlari miqdori to'xtovsiz ortib bordi. 1956/1957-o'quv yilida o'zbek maktablarida rus tilini o'rganishga ajratilgan vaqt 1716 soatga yetkazilib, bu barcha o'quv soatlarining 17 foizini tashkil qildi²⁵.

Oqibatda ta'lim va madaniyatda o'zbek tilining ahamiyati pasayib bordi, shahar ziyolilari, shuningdek, ishchilar orasida va davlat idoralarida o'zbek tilini bilmaydigan qatlam shakllandi. Agar 1926-yilda 60 nafar o'zbek rus tilini o'zining ona tili deb tan olgan bo'lsa, 1959-yilda – 17,5 ming, 1970-yilda – 26,2 ming, 1979-yilda – 43,4 ming, 1989-yilda – 183,5 ming o'zbek boshqa millatlarning tilini, ayniqsa, rus tilini o'z ona tili sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga o'zbeklarning muayyan qismi o'zbek tilini o'zining ona tili deb yozdirgani bilan bu tildan muloqotda ham, ishlab chiqarish sohasida ham, o'quv muassasalarida ham va boshqa o'rinlarda ham amalda foydalanmas edi. Natijada bu guruh odamlari uchun ona tili faqat maishiy til sifatida mavjud edi, xolos. Bularning barchasi o'zbeklarning milliy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi²⁶.

XX asrning 70 – 80-yillarida O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribasidan, zamonaviy texnika va o'quv vositalaridan foydalanmadi. Ularning o'quv texnika bazasi yangilanmadi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar juz'iy ahamiyatga ega bo'lib, mavjud muammoni hal qilishdan ko'ra uni keng xalq ommasi ko'z o'ngidan yashirish, "bo'yab-bezab" ko'rsatish ma'qulroq ko'rindi. Aslida islohotlardan ko'zlangan maqsad sovet ta'lim tizimini xalqaro darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilarning bilim saviyasi sifatini oshirish, ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishdan iborat edi²⁷.

1966-yil aprelda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumi va KPPSning XXII syezdi sovet olimlarini jamiyatda kechayotgan jarayonlarni qayta anglashga yo'naltirdi²⁸. L. Brejnev 1966-yil iyulda Siyosiy byuroga "nazariy ishlarni yuksaltirish", "hozircha bo'lmayotgan" "marksizm nazariyasi sohasida qizg'in ijodiy faoliyat" olib borish

²⁴ Қаранг: История Узбекской ССР. (С древнейших времен до наших дней). Под ред. И.М. Муминова. – Т.: Фан, 1974. – С. 530.

²⁵ Қаранг: Қодиров Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. – Тошкент, 1957. – Б. 88.

²⁶ Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). К. 2. Ўзбекистон 1939 – 1991 йилларда / масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 286.

²⁷ Қаранг: Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). К. 2. Ўзбекистон 1939 – 1991 йилларда / масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 225 – 227.

²⁸ См.: Дмитренко В. П. Становление концепции развитого социализма в СССР // Вопросы истории. – 1984. – № 8. – С. 8.

zarurligi to'g'risida yozadi²⁹.

Mafkurani qayta ko'rib chiqish bilan SSSR Fanlar Akademiyasining yetakchi olimlari, akademiklar shug'ullandi. Bu jarayon respublikalar darajasida ham davom ettirilib, O'zbekistonda ham respublikaning yetakchi faylasuf olimlari shug'ullandi.

1979-yil 8-iyunda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XIII plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda O'zbekiston KP MKning birinchi sekretari Sh. Rashidovning KPSS MKning "Mafkuraviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlarni yanada yaxshilash to'g'risida"gi qarorini bajarish bo'yicha respublika partiya tashkilotining vazifalari" haqidagi dokladi tinglanib, muhokama qilindi.

Plenumda mafkuraviy ishlarni to'xtovsiz takomillashtirib borish kommunizm uchun kurashning muhim jihati ekanligi ta'kidlandi va bu borada respublika partiya tashkilotlarining faoliyati tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar va KPSS MK qarori asosida bu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tildi. Xususan, barcha mehnatkashlarni sotsialistik internatsionalizm va sovet vatanparavarligi ruhida tarbiyalash muhimligi ta'kidlandi³⁰.

O'zbekistonda bu davrda bir tomondan, sanoat, ilm-fan, madaniyat va san'at jadal rivojlanishi, kishilarning yashash sharoiti yaxshilanishi bilan birga "paxta yakka hokimligi"ning kuchayishi, jamiyatda ko'zbo'yamachilik, poraxo'rlik, tanish-bilishlik kabi illatlarning ham avj olishi yuz bergan bo'lsa, boshqa tomondan "rivojlangan sotsializm"da xalqlar do'stligi, kishilarning tengligi va birodarligi kabi g'oyalari keng targ'ib qilindi. Ammo targ'ib qilinayotgan g'oyalar bilan asl holatning bir-biridan farqi yil sayin kuchayib bordi va bu odamlar o'rtasida targ'ib qilinayotgan postulatlarining yolg'onligi, ularning reallikdan uzoqligi to'g'risidagi fikrlarni keltirib chiqardi. Qayta qurish bilan boshlangan nisbatan erkinlik sharoitida O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlar orasida shu paytgacha singdirilgan yolg'on g'oyalar o'rini o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, milliy tiklanish va mustaqillik g'oyalari keng tarqaldi.

"O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotini mafkuralashtirishda ommaviy axborot vositalarining roli va uning oqibati" deb nomlangan uchinchi bobda kommunistik partiyaning mafkuralashtirish jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi va ularning oqibati tahlil qilingan. Mafkuralashtirish jarayoni "ijtimoiy buyurtma" deb nomlangan hodisani keltirib chiqargan.

Ijtimoiy buyurtma sotsiologiyada keng tarqalgan tushuncha. Aytaylik, masalan, san'at, madaniyat, tashviqot sohasida davlatning rasmiy siyosati mafkuraviy yo'nalishini inobatga olgan holda intellektual buyurtmani bajarish «ijtimoiy buyurtma» deb ataladi.

SSSRda ijtimoiy buyurtma yuqoridan shakllantirilgan. Butun sovet tuzumi davrida mavjud tuzumning asoslarini targ'ib qilish sovet ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasiga aylandi. Bu tashviqotning fundamental asoslarini marksizm-leninizm mafkurasi tashkil qilgan. Sovet davlati mavjud bo'lgan davrda marksizm-leninizm ishchilar sinfining dunyoqarashi, olamni bilish va inqilobiy

²⁹ Генеральный секретарь Л. И. Брежнев: 1964–1982 (Вестник Архива Президента. Специальное издание). – М.: 2006. – С. 75.

³⁰ За высокий научный уровень идеологической работы // Общественные науки в Узбекистане. – 1979, – № 8. – С. 4.

o'zgartirish, inson tafakkurining tabiati, kapitalizmni ag'darish uchun ishchilar sinfining inqilobiy kurashi qonunlari, mehnatkashlarning sotsialistik va kommunistik jamiyat qurish yo'lidagi yaratuvchilik faoliyati haqidagi fanning, falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarning yagona haqiqiy ilmiy tizimini tashkil qiladi³¹.

Sovet davlatining bosh maqsadi yangi tipdagi insonni – sovet kishisini, induvidualistik emas, kollektivistik tamoyillarga amal qiluvchi, ko'ngilli ravishda shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlariga bo'ysundiruvchi va jamiyat ravnaqi uchun o'zini qurbon qilishga tayyor, materialistik va ateistik dunyoqarashga amal qiluvchi, kommunistik jamiyat doirasida amalga oshirish ko'zda tutilgan kelajak avlodlarning baxtli hayotini o'zining oliy maqsadi deb bilgan shaxsni shakllantirish edi³².

Sovet davlati yagona mafkuraga asoslanganligi sababli jamiyat hayotining barcha jabhalari – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalar shu mafkuraga bo'ysundirilgan edi. Ommaviy axborot vositalari sovet tuzumining mafkuraviy asosini tashkil qilgan marksizm-leninizm nazariyasiga asoslangan kommunistik mafkurani targ'ib qilish ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi hisoblangan.

Bunday holat O'zbekistonning partiya rahbarlarini ham aholi, ayniqsa, yoshlar orasida ateistik tashviqotni kuchaytirishga undadi. Bunda, albatta gazetalarning roli katta bo'ldi. O'zbekistonda sovet hokimiyati yillarida gazetalar soni keskin ko'paydi. Agar Birinchi jahon urushi arafasida O'zbekiston hududida hammasi bo'lib 14 ta gazeta va 3 jurnal, jumladan, o'zbek tilida faqat 1 ta gazeta va 1 ta jurnal chop qilingan bo'lib, gazetalar haftada ikki marta va 500 nusxadan chiqqan bo'lsa, 1970-yilga kelib O'zbekistonda o'zbek, rus, tojik, qoraqalpoq va boshqa tillarda 226 ta gazeta chop etilar edi³³. Bu gazetalarning barchasi oldiga sovet turmush tarzini, partiya qarorlari va boshqa rasmiy siyosat yo'nalishlarini keng targ'ib qilish vazifasi qo'yilgan edi. Agar boshqa mamlakatlarda gazeta u yoki bu voqea to'g'risida bir nechta muqobil fikrlarni berib borgan va shu bilan o'z obunachilari sonini ko'paytirishga uringan bo'lsa, SSSR, jumladan, O'zbekistonda gazetalar partiyaning targ'ibot quroliga aylantirilgan edi. Gazetalar tezkor xabarlar berish bilan birga “kommunistik partiya g'oyalarini aholi ommasiga yetkazib beruvchi targ'ibotchilarga” aylantirildi. Ayni paytda ziyoli kadrlar tayyorlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish kommunistik partiya siyosatining muhim tarkibiy qismini tashkil qildi. Bunda keng bilimli emas, balki partiya g'oyalariga sodiq avlodni tarbiyalash ishlariga alohida ahamiyat berildi³⁴.

Bu davrda ateistik tarbiya o'ziga xos “ijtimoiy buyurtma” bo'lib, bunda nazariy tashviqotga alohida e'tibor qaratildi. Nazariy tashviqotning sifati va samaradorligi, uning yuksak ilmiyligi, hayot bilan bog'liqligini ta'minlashga e'tibor kuchaytirilishi sovet kishilarida qiziqish va partiyaning dasturiy maqsadlarini amalga oshirishga ongli yondashuvni, jamiyatning har bir a'zosida burjuacha va revizionistik mafkuraga barqaror immunitetni tarbiyalash ehtiyojidan kelib chiqadi.

³¹ Митин М.Б.Марксизм-ленинизм//Большая советская энциклопедия. 3-е изд.–М.:Советская энциклопедия, 1969 – 1978.

³² Идеология, пропаганда и агитация в СССР: Справочное пособие / Авт.-сост. Д. В. Кузнецов. [Электронный ресурс]. – Б.м.: Б.и., 2019. – С. 61.

³³ Союз нерушимый: Справочник. – М.: Политиздат, 1982. – С. 137.

³⁴ Каранг: Хакимов Н. Политическая культура личности // Агитатор Узбекистана – 1990, – № 4. – С. 26.

Agar matbuot – kommunistik qurilish instrumenti, ommaning ilmiy dunyoqarashi va g‘oyaviy irodasini tarbiyalash quroli bo‘lsa, matbuotdagi nazariy tashviqot – hayotni bilish va uni o‘zgartirishning o‘tkir quroli, eng muhim vositalaridan biri, oliy darajadagi axborot manbayi.

Markscha-lenincha nazariyani, KPSSning siyosati va tarixini, sotsialistik hayot tarzini tashviqot qilish, hujumkor va ishonchli kontrtashviqot – istisnosiz, ularning “maqomi”, hajmi, adadi hamda davriyligidan qat’i nazar barcha gazetalarning burchi va majburiyati³⁵. Bu matbuot va uning vazifasiga sovetcha qarashning namunasi edi.

O‘zbekistonda ham 50 – 60-yillarning boshlarida bir qator qarorlar qabul qilinib, ularda jamiyatni mafkuralashtirishda ommaviy axborot vositalarining roli va o‘rni belgilab berildi. Xususan, 1952-yil fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi MKning X plenumi jamiyatda g‘oyaviy-siyosiy tarbiyani kuchaytirishga qaratilgan qaror qabul qildi. 1954-yildan esa ateistik targ‘ibotni kuchaytirish ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasiga aylandi.

Respublika radiosi “kommunistik mafkurani xalq ongiga singdirish” bilan shug‘ullanib turgan bir vaqtda xorij mamlakatlari radiolarida O‘zbekiston hamda ittifoqdosh respublikalarning hayoti haqida, milliy respublikalarga nisbatan sovet hokimiyatining olib borayotgan siyosatining aslida qanday ekanligiga qaratilgan eshittirishlar muntazam berib borildi. Sovet hukumati esa bu ma’lumotlarni inkor qilish maqsadida respublika radiosi ommaviy targ‘ibot bo‘limi xodimlari oldiga sovet turmush tarzi, uning kun sayin “yanada yaxshilanib borayotganligi, erishilayotgan “yutuqlar” to‘g‘risidagi ma’lumotlarni radioeshittirish dasturlarida keng yoritish haqida ko‘rsatma berdi. Shu maqsadda respublika radiosida “Sovet turmush tarzi”, “Ulug‘ Oktabr bayrog‘i ostida”, “Kommunizm yo‘lidan 60 yil”, “Mehnat sulolalari shajarasi”, “Do‘stlik – olmosdan mustahkam”, “O‘zbekiston do‘stlarimiz ko‘zi bilan” kabi bir qator eshittirishlar berildi³⁶.

Shuningdek, O‘zbekistonning sotsializm qurish yo‘lidagi yutuqlari chet davlatlar, ayniqsa, mustaqillikka erishgan va o‘z taraqqiyot yo‘lini izlayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlariga namuna qilib ko‘rsatildi. Bu targ‘ibot ishida radio ham katta rol o‘ynadi. 1950-yillar tashkil qilingan chet ellarga radio eshittirish bo‘limi 1970-yillari dunyoning 80 ga yaqin tillarida butun dunyoga eshittirishlar berardi³⁷. Ularda, albatta, O‘zbekiston sovet davrida erishgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yutuqlar ko‘z-ko‘z qilindi hamda dunyo mamlakatlarini sotsializm yo‘lidan borishga tashviqot qilindi.

Butun SSSRda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham aholi orasida kommunistik targ‘ibot va tashviqot turg‘unlik yillarida o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. 1970-yillarga kelib televideniye butun respublika hududini qamrab oldi va teledasturlar muttasil kengayib bordi. Davlat televideniye qo‘llab-quvvatlash uchun juda katta iqtisodiy, intellektual va boshqa resurslarni yo‘naltirdi va bu sovet siyosiy tuzumida televideniye muhim rolini inobatga olganda, tabiiy hol edi.

³⁵ Макушин Л.М. Особенности идеологической пропаганды в газетах разных типов // Журналистика развитого социализма: пути совершенствования работы журналиста. Сборник научных трудов.–Свердловск.–1984.– С. 5.

³⁶ Темирова М. Совет ҳукумати даврида радионинг коммунистик мафкура тарғиботи воситасига айлантирилиши // Ўтмишга назар, 2020 йил, 3-жилд, 2-сон. – Б. 68.

³⁷ Шу жойда.

“Qayta qurish” yillarida matbuotda kommunistik mafkurani, targ‘ib qilish bir oz susaygan bo‘lsa-da, gazetalar, ayniqsa, markaziy gazetalar sahifalarida davrning ijtimoiy buyurtmasiga aylangan rivojlangan sotsializmning ustunliklariga bag‘ishlangan maqolalarni chop etish davom etdi. Masalan, “Sovet O‘zbekistoni” gazetasining 1985-yil 13-oktabr sonida “Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyusiyasining 68 yilligiga KPSS Markaziy Komitetining chaqiriqlari” e‘lon qilinib, u, jumladan, “Insoniyat tarixida yangi davrni – kapitalizmdan sotsializm va kommunizmga o‘tish davrini ochgan Ulug‘ Oktabrga shon-sharaflar!”³⁸ kabi 44 ta chaqiriqdan iborat edi.

1960 – 1970-yillari o‘zbek ziyolilari o‘z asarlari, ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlari davrning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga, “iliqlik” davri bergan oz bo‘lsada erkinlikdan foydalanib, milliy o‘zlikni anglash jarayonini targ‘ib qilishga qaratildi. Buni shu davrda ziyolilarning ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlarida ularning hayotiyliigi, oddiy xalq tashvishlari bilan hamohangligida ko‘rish mumkin. Ammo bu davrda kommunistik mafkuraning ta’siri jamiyatda kuchli bo‘lib, hali ochiq sotsialistik tuzumni tanqid qilishning iloji yo‘q edi. Shunga qaramasdan, kundalik turmushdagi kamchiliklar, mahalliy rahbarlarning loqaydligi kabi illatlar matbuotda tanqid ostiga olindi. Ayniqsa, “Mushtum” jurnali sahifalarida juda dolzarb muammolar felyeton qilinardi.

Bu davrda o‘zbek ziyolilarining ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlari jamiyatda juda katta qiziqish uyg‘otdi. O‘n yillar davomida faqat kommunistik mafkura ta’siri ostida yashagan jamiyatda mavjud muammolarning ochiq aytila boshlanishi, respublikada yig‘ilib qolgan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari haqidagi fikrlarni katta qiziqish bilan kuzatib, ayni paytda passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo‘lishga harakat qildi. Viloyatlar gazetalarida ham eng dolzarb mavzudagi maqolalar chop etila boshlandi.

Matbuotda milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan maqolalarning bir qismi ona tabiatni asrash, kelajak avlodga obod vatanni qoldirish muammolariga bag‘ishlandi. O‘sha davrda tabiat muhofazasi masalasida faol fuqarolikni namoyon etgan Dadaxon Nuriy bir qator maqolalar e‘lon qildi. U “Yoshlik” jurnalida e‘lon qilingan “Shahar o‘rtasida bir tup oq o‘rik” nomli maqolasida dolzarb muammo - so‘nggi yillarda Toshkent va uning atrofidagi bog‘lar yo‘q bo‘lib ketayotgani, shaharda mevali daraxtlarni ko‘paytirish masalasini qo‘ygan edi³⁹.

Milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga qaratilgan eng dolzarb mavzu – o‘zbek tilining holatini yaxshilash bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu davrda yozuvchi va shoirlar, olimlar va boshqa soha vakillari, ziyolilarning tashvishi borgan sari maishiy tilga aylanib qolayotgan ona tilimizning taqdiriga qaratildi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab matbuotda, boshqa ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilining tashvishli holatiga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar paydo bo‘ldi. Ziyolilar o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurash boshladi.

XX asrning 80-yillarida o‘zlikni anglash uchun olib borilgan kurashning yana bir muhim sohasi milliy urf-odatlarini tiklash uchun harakat bo‘ldi. Zero, KPSS mafkuraviy siyosatining SSSR xalqlari ma’naviyatiga jiddiy salbiy ta’siri natijasida

³⁸ Совет Ўзбекистони. 1985 йил 13 октябрь.

³⁹ Қаранг: Ёшлик. 1984 йил - № 4.

jamiyatda madaniy-ahloqiy muhit zaiflashdi, ma'naviy qashshoqlik sovet jamiyatini tobora inqirozga yetaklovchi kuchga aylana bordi. Bu holat oxir-oqibatda milliy tillarning jamiyat hayotidagi mavqeini pasayishiga, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni "o'tmishning zararli sarqiti" sifatida ta'riflashga, ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan dini "xurofot va bid'at" deb talqin qilinishiga asos bo'ldi⁴⁰.

Xullas, XX asrning 80 – 90-yillar boshlari jamiyatda milliy uyg'onish davri bo'ldi. Bunda, avvalo, ziyolilar – shoir va yozuvchilar, jurnalistlar, olimlar, o'qituvchilar va boshqa sohalar xodimlari katta rol o'ynadi. Rasmiy doiralar asosan sovet tuzumini saqlab qolish bilan band bo'lib turgan bir paytda aynan ziyolilar millatni uyg'otish, milliy o'zlikni anglatish yo'lida katta ishlarni amalga oshirdi. Hali kommunistik partiya va uning organlari faoliyat yuritayotganiga, ko'plab ta'qiqlar saqlanib qolayotganiga qaramasdan, qayta qurish bergan ozgina erkinlikdan ziyolilarimiz unumli foydalanishga intildilar. Ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, gazeta va jurnallar o'z materiallarida millatimizning eng dolzarb muammolarini yoritib boshladi. Bular juda qisqa vaqt ichida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy faollikni uyg'otdi, milliy o'zlikni anglash jarayonini boshlab berdi.

Kommunistik mafkuraning kishilar ongi uchun keng ko'lamlari kurash olib borishiga qaramasdan, milliy ong, milliy o'zlikni anglash jarayoni doimiy kuchayib bordi. Ayniqsa, 1980-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida milliy o'zlikni anglashga qaratilgan dasturlar, maqolalar keskin ko'paydi. Qayta qurish davrida paydo bo'lgan erkinlikdan o'zbek ziyolilari juda unumli foydalandi. Ularning ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlari xalqimizga buyuk tarixini, azaliy urf-odatlarini qaytarishda, milliy o'zlikni anglashning kuchayishida katta rol o'ynadi. Ayniqsa, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurash jarayoni millatni birlashtirish yo'lida qudratli kuch bo'ldi. Aynan shu davrda jamiyatda mustaqillik g'oyalari kuchayib, bu milliy o'zlikni anglashning muhim omiliga aylandi

XULOSA

Mavzuni o'rganish natijasida uning ilmiy, amaliy ahamiyati va dolzarbligidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Sovet jamiyatida kommunistik mafkuraning roli ma'muriy-boshqaruv tizimining shakllanishi bilan muvoziy ravishda kuchayib bordi. Partiya va davlat boshqaruvining birikib ketishi kommunistik mafkuraning barcha jabhalarga ta'sirini kuchaytirdi. Ammo O'zbekistonda milliy san'at sohasini mafkuralashtirishning nazariy-konseptual jihatlari cheklanganligi san'atda milliylikning saqlanib qolishi uchun imkoniyat yaratdi.

2. Kommunistik mafkuraning xarakterli jihatlardan biri uning baynalmilallikka asoslanishi edi. Bu hol O'zbekistondagi ijodiy uyushmalar faoliyatida ham aks etdi. Ular faoliyatida milliylik va baynalmilallikning nisbati ko'pchilik hollarda milliylik

⁴⁰ Юсупова Х.Э. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2009. – Б. 81.

foydasiga saqlanib keldi. Sovet adabiyotida yozilganidek, “shaklan milliy mazmunan sotsialistik” qolip O‘zbekistondagi ijodiy uyushmalar faoliyatida ham ustuvor bo‘lsa-da, unda milliylik va baynalmilallik muvozanati saqlanib qoldi.

3. 1950-yildan 1991-yilgacha sovet ta’lim tizimida bir necha bor islohotlar o‘tkazildi. Islohotlarning cheklanganligi va kutilgan natijalarni bermaganligi, avvalo, ta’lim tizimining kommunistik mafkura manfaatlariga bo‘ysundirilganligi bilan bog‘liq bo‘ldi.

4. Jamiyatda kommunizmga ishonchning susayishi kommunistik rahbarlarni ta’lim tizimida yoshlar ongiga “rivojlangan sotsializm” g‘oyasini singdirishni kuchaytirishga majbur qildi. Ammo jamiyatda boshlangan umumiy tushkunlik holati bu jarayonning muvaffaqiyatsizligini belgilab berdi.

5. Sovet jamiyatida ommaviy axborot vositalarining asosiy roli sifatida kommunistik mafkura targ‘iboti belgilab berilgan edi. Shu sababli O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni mafkuralashtirishda ommaviy axborot vositalari asosiy rol o‘ynadi. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolardan kelib chiqib ommaviy axborot vositalarida “ijtimoiy buyurtma” shakllantirilib borildi. “Ijtimoiy buyurtma”ning mazmuni ham kommunistik partiya jamiyat oldiga qo‘ygan vazifalarning dolzarbligidan kelib chiqib belgilandi. Ularning pirovard natijadagi muvaffaqiyatsizligini esa “ijtimoiy buyurtma”ning mazmuni emas, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy holat belgilab berdi.

6. Butun sovet tuzumi davrida o‘zbek ziyolilari jamiyat ongiga milliy o‘zlikni singdirish jarayonini to‘xtatmadi. Stalin qatag‘onlari davrida ularning katta qismi hayotdan mahrum bo‘ldi. Keyingi davrlarda bu jarayonning tili o‘zgardi, ziyolilar ko‘proq badiiy obrazlar orqali milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga harakat qildi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab jamiyatda paydo bo‘lgan nisbatan erkinlik holati o‘zbek ziyolilariga ommaviy axborot vositalari orqali milliy o‘zlikni anglash uchun ochiq kurash olib borish imkonini yaratdi. Paxta yakkahokimligiga qarshi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, milliy urf-odatlarni tiklash uchun kurashdan boshlangan o‘zlikni anglash jarayoni 1980-yillar oxiriga kelib mustaqillik uchun kurashga aylandi. Bunda so‘zsiz o‘zbek ziyolilarining ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlari asosiy rol o‘ynadi.

Tadqiqot ishi bo‘yicha chiqarilgan xulosalar O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotini mafkuralashtirish tariximizda mash‘um rol o‘ynaganligini ta’kidlagan holda quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** bildirish imkonini beradi:

1. O‘zbekiston tarixidan yaratilayotgan fundamental asarlar, darslik va qo‘llanmalarda 1950 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlari va ularning oqibatlarini alohida mavzu sifatida yoritib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Bugun dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar va ularda turli g‘oyalarning rolini inobatga olgan holda O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish g‘oyasini yoshlar ongiga singdirish jarayonini so‘nggi paytda jahonda yuz berayotgan keskin o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda doimiy takomillashtirib borish lozim.

3. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet tarmog'ini ham inobatga olgan holda jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ular imkoniyatidan unumli foydalanishning zamonaviy tizimini yaratish lozim.

4. Jahondagi globallashuv jarayoni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'naviy xavfning oldini olish maqsadida ommaviy axborot vositalarida milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga bag'ishlangan dasturlar, maqolalar va boshqa janrlarda taniqli ziyolilarimizning chiqishlarini tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУРАЕВ УТКИР ОРТИКБОЕВИЧ

**ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ ИДЕОЛОГИЗАЦИИ
СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ В УЗБЕКИСТАНЕ
(1950-1991 гг.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № В2023.2.PhD/Tar307.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.ik-tarix.tdpu.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Маврулов Абдухалил Абдулхаевич**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юнусова Хуршида Эркиновна**
доктор исторических наук, профессор

Расулов Абдулла Нуриддинович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация: **Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51;
e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № ____). Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от “___” _____ 2024 года).

А.К. Киргизбаев
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук, профессор

С.Б. Тилабоев
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
кандидат исторических наук

Н.Х. Обломуродов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. XX век отличается резким повышением роли идеологии в общественной, политической и культурной жизни народов мира. Политические партии, возникшие во второй половине XIX века, имели свою идеологию, и каждая из них использовала ее в достижении политической власти. В этот период возник ряд тоталитарных идеологий как анархизм, коммунизм, марксизм, ревизионизм, ленинизм, либерализм и национал-социализм, которые сыграли важную роль в идеологизации общественного сознания. В национально-освободительных движениях, возникших после Второй мировой войны, в двуполярной мировой системе роль идеологии еще больше возросла. Несмотря на то, что демократические ценности западного мира к концу XX – началу XXI века стали основным фактором развития большинства народов, роль национальных идеологий все же не утратила своего значения.

Коммунистическая идеология большевиков, пришедших к власти в России в начале XX века, на протяжении более семидесяти лет составляла основу политической и социокультурной жизни в СССР и входящей в его состав Узбекской ССР. Внедрение этой идеологии в сознание народа стало главной задачей советских и партийных органов, средств массовой информации. Особое внимание уделялось идеологизации образования, культуры, искусства и повседневной жизни. Реформы, проведенные после обретения Узбекистаном независимости, были в первую очередь направлены на изменение идеологических постулатов, оставшихся от советской тоталитарной системы, и формирование национальной идеологии. В результате произошла политическая активизация общества, а основательное изучение последствий идеологизации социокультурной жизни, проводимой коммунистами, превратилось в актуальную задачу. В годы независимости был выполнен ряд научных работ о влиянии коммунистической идеологии на политическую и экономическую жизнь, однако недостаточная изученность роли идеологии в социокультурной жизни и существующая научная и практическая потребность в этом определяет необходимость исследования.

XX век стал периодом борьбы идеологий в мировом масштабе. По этой причине проблема идеологизации общественной и культурной жизни в Узбекистане и ее последствия стали изучаться рядом зарубежных научных центров и ученых на протяжении всего прошлого столетия, особенно во второй его половине. В этом процессе, наряду с другими радикальными идеологиями, сформировавшимися в XX веке, особое внимание уделяется выявлению тоталитарной сущности коммунистической идеологии, ее препятствия на пути демократического развития, а также того факта, что в обществах, где господствует эта идеология, не обеспечиваются основные права граждан.

Данная диссертация в определенной степени может способствовать реализации задач, обозначенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», №ПП-4307 от

3 марта 2019 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», №ПП-5040 от 26 марта 2021 года «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы» и других нормативно-правовых документах, относящихся к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Проблемы социокультурной жизни Узбекистана в хронологических рамках данного исследования стали изучаться с 1950-х годов. Серьезное внимание этому вопросу стали уделять особенно с 1970-х годов. Однако исследования советского времени отличаются тем, что в них идеологизация социально-культурной жизни изучалась как положительное явление и исходя из этого преимущественно разрабатывались пути ее совершенствования, методы агитации и пропаганды коммунистической идеологии.

Исходя из этого, исследования по данной теме будет целесообразно изучить, разделив их на три группы.

В первую группу можно включить произведения таких ученых, изучавших изменения в общественной и культурной жизни в советское время, как Э.Кадыров, Х.Пулатов, Н.Гойипов, В.Устинов, К.Окилов, К.Буронов, М.Капустин, А.Валиев, С.Шермухаммедов, Х.Расулов, С.Отамурадов⁴¹. Несмотря на то, что их произведения создавались на основе коммунистической идеологии, они отражают теоретические аспекты гуманизма и культуры, диалектику и взаимосвязанность национализма и интернационализма в культуре.

Работы К.Окилова, А.Валиева посвящены развитию культуры Узбекистана в советский период и роли интеллигенции в этом процессе, а также раскрытию роли коммунистической партии и советской власти в развитии современной узбекской культуры.

